

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

**10.00.07 – “Adabiyot nazariyasi” ixtisosligi bo'yicha
tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilikka
(PhD, DSc) kirish imtihoni
DASTURI**

Toshkent – 2024

Ushbu dastur O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlandi (2024-yil “ ___ ” _____, ___-sonli bayonnoma).

Tuzuvchi:

B.To‘rayeva – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori v.b. filol.f.d.

Taqrizchilar:

B. Karimov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori filol.f.d.

M.Umarova – O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti professori v.b. filol.f.d.

KIRISH

Respublikamizda madaniyat, ma'naviyat va ilm-fan sohalarida olib borilayotgan islohotlar yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yoshlarning ilmiy ijodiyotini har tomonlama qo'llab-quvvatlash; ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar darajasini baholashga zamonaviy yondashuvni ro'yobga chiqarish, ilmiy tadqiqotlar va texnologik ishlanmalar natijalari tijoratlashuvi asosida olimlarning obro' e'tibori va ijtimoiy maqomini oshirish; mamlakat ilm-fanining xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyasini faollashtirish, ta'lim sohasi va kadrlar tayyorlashni takomillashtirish maqsadida ilmiy yutuqlar va olimlar bilan o'zaro almashinuv jarayonini kuchaytirishga qaratilgan.

10.00.07 – Adabiyot nazariyasi ixtisosligi bo'yicha tuzilgan malakaviy imtihon dasturi adabiy tur va janrlar, oqim va yo'nalishlar, hayotni aks ettirish tamoyillari, badiiy uslub, shakl va mazmun hamda uning komponentlari, badiiylik mezonlari va maromlari, ijodiy metodlarga oid nazariy bilimlarni qamrab olishga qaratildi. Tadqiqotchilarning adabiyotshunoslik nazariyasi fanidan adabiy-estetik tafakkur darajasini hamda ularning evristik va kreativ qobiliyatini aniqlashdan ko'zlangan maqsad talabgorning yuqori malakali mutaxassis bo'lib yetishishidir. Talabgorlar o'zbek va jahon adabiyoti nazariyasi tarixi, zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolarini bilishi va to'g'ri talqin qila olishi, jahon nazariy tafakkuri kontekstida tushunishi bugungi ilmiy-adabiy jarayon rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyot nazariyasi fanining mohiyati

Adabiyot nazariyasi badiiy adabiyotning mohiyati, rivojlanish omillari va qonuniyatlari, jamiyat hayotidagi o'rni va vazifalari, badiiy asar tabiati hamda uning tuzilishi, badiiy til xususiyatlari, adabiy turlar va janrlar kabi masalalarni umumiy tarzda o'rganadi va shu asosda umumiy qonuniyatlarni ochib beradi. Shuningdek, adabiyot nazariyasi badiiy obraz va obrazlilik, badiiy obraz va reallik munosabatlari, dunyoqarash va badiiy ijod, badiiy ijod jarayoni xususiyatlari, badiiy asarni qabul qilish jarayoni xususiyatlari kabi qator umumestetik masalalarni ham so'z san'atiga tatbiqan o'rganadi. Adabiyot nazariyasi badiiy asarlarni tahlil qilish tamoyillari, baholash mezonlari, tahlil metodlarini ishlab chiqadi, adabiyotshunoslik uchun zarur adabiy-nazariy tushunchalar tizimini yaratadi Adabiyot nazariyasi zamonaviy aspektida quyidagi yo'nalishlarda taraqqiy etmoqda: 1. Matnga asoslangan nazariyalar (formal-struktural yondashuv, yangi tanqid, narratologiya). 2. Muallifni o'rganishga qaratilgan nazariyalar (biografik, psixanalitik yondashuv, shu bilan birga feministik adabiyotshunoslik, fenomenologik tadqiqotlar). 3. Kitobxonga qaratilgan nazariyalar (retseptiv estetika, asarni qabul qilish tarixi; tarixiy-funksional tadqiqotlar). 4. Adabiy va madaniy-tarixiy kontekstga oid nazariyalar (reminissensiya, intertekstual) tadqiqotlar, sotsiologik va tarixiy-materialistik yondashuv.

ASOSIY QISM

Adabiyot nazariyasi

Adabiyotshunoslik fanining nazariy asoslari. Adabiyotshunoslik – badiiy adabiyot haqidagi fan ekanligi haqida tushuncha. Adabiyotshunoslik fanining obykti, predmeti, maqsad va vazifalari. Qadimgi G‘arb va Sharq adabiyotshunosligida dastlabki nazariy qarashlar. Adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari va yordamchi sohalari. Adabiyotning og‘zaki va yozma shakli. Adabiyotshunoslikning boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqasi.

Adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslik metodologiyasi. Metodologiya adabiyot nazariyasining asosiy muammolaridan biri sifatida. Nazariy poetikaning tarixiy poetikaga tayanishi. Jahon poetik tafakkuri tarixi va ilmiy-nazariy metodlar haqida tushuncha. Qadim hind, qadim xitoy va qadim yunon adabiy–estetik tafakkuri. Aristotel, Forobiy, va Navoiyning poetik qarashlari.

Badiiy adabiyot san‘at turi sifatida. San‘at tushunchasi haqida ma‘lumot berish. Amaliy va badiiy san‘atlar, badiiy adabiyotning san‘at turlari orasidagi o‘rni va o‘ziga xosligi haqida to‘liq tasavvurni shakllantirish. Adabiyot millatning ruhi va qalbi ekanligini anglatish. Badiiy adabiyot, badiiy asar, san‘at, didaktika, kompensatorlik, badiiy-konseptual, kommunikativ, badiiy bashorat, iste‘dod, xosiyat, an‘ana va yangilik, mahorat.

Badiiylik mezonlari va maromlari. Badiiylik tushunchasi haqida ma‘lumot. Badiiylik – bezavol yangilik ekanligini tushuntirish. Badiiylik mezonlari tasnifi. Ijod jarayoni qonuniyatlari. Badiiylik mezonlari. Hayotiy haqiqatga sodiqlik. Milliy va mahalliy koloritni ifodalash. Badiiy detaldan samarali foydalanish. Mazmun va shakl birligi va ularning uyg‘unligi. Tasvir yoki ifodaning haqqoniyligi. Pafosning hayotiyligi va tiniqligi. Tasvir va ifodaning aniqligi. Betakrorlik (originallik). Estetik baho. Shartlilik miqyosi va darajasi. Til badiiyati.

Badiiy asarda shakl va mazmunning mutanosibligi. Badiiy asarda shakl va mazmun haqida tushuncha. Shakl va mazmun munosabati. Shakl, mazmun, badiiy asar shakli, badiiy asar mazmuni. Mazmunning shaklni belgilashi. Shaklning nisbiy mustaqilligi, shaklning konservativligi, mazmunning originallikka intilishi. Shakl va mazmun unsurlari tasnifi.

Badiiy asarda mavzu va g‘oya. “Badiiy asar” tushunchasi. “Badiiy asar” tushunchasining keng va tor ma‘noda qo‘llanishi. Badiiy ijod jarayoni haqida. Badiiy asarda ijod jarayoninig muhrlanishi. Adabiy asarning yaxlitligi, bir butunligi, birinchi navbatda, unda foydalangan mazmun bilan belgilanishi.

Syujet turlari va unsurlari. Syujet haqida umumiy tushuncha. Konflikt – syujetning o‘zagi. Syujetning tarkibiy qismlari. Ekspozitsiya, voqealar tuguni,

voqealar rivoji, voqealarning avj nuqtasi, voqealar yechimi. Syujetning turlari va tiplari. Fabula.

Badiiy asar kompozitsiyasi. Kompozisiya haqida umumiy tushuncha. Kompozisiya unsurlari. Asar sarlavhasi – semiotik kalit. Badiiy zamon va makon (xronotop). Syujet va kompozisiyaning chambarchas bog‘liqligi.

Badiiy obraz va obrazlilik. Obraz san‘at va adabiyotning obrazlar vositasida voqelikni aks ettirish haqidagi asosiy tushuncha. Adabiyot va san‘atning voqelikni obrazlar vositasida aks ettirishi. Inson adabiyotning asosiy qahramoni. Obraz. Obrazlilik. Ramz, majoz. Obraz – ijodkor yaratgan inson dunyosining umumlashgan tasviri. Badiiy asarda personajlar o‘rni va ahamiyati; bosh qahramon va ikkinchi darajali qahramonlar; falsafiy, allegorik, realistik, romantik, xayoliy–fantastik, majoziy–ramziy obrazlar. Obrazli tafakkur (obrazlilik) san‘atning spesifikasi. Badiiy obraz tushunchasi. Badiiy obraz xususiyatlari. Inson obraziva uni yaratish yo‘llari. Badiiy obraz turlari.

Badiiy asar tilining xususiyatlari. Til – badiiy asar komponenti sifatida. Xalq tilining estetik imkoniyatlari. Jonli til (xalq tili). Adabiy tilning o‘ziga xos xususiyatlari. Badiiy til. Muallif nutqi. Personaj nutqi. Tilning maxsus tasviriy vositalari. Badiiy adabiyotda dialektizm, arxaizm, professionalizm, vulgarizm va boshqa unsurlar masalasi. Til va individuallik. Yozuvchining ijodiy niyatiga ko‘ratil vositalarining tanlanishi. Badiiy matnda stilistik vositalar.

Adabiy tur va janrlar. Badiiy adabiyotni turlarga ajratish prinsiplari. Adabiy turlar orasida chegaraning shartlilikligi. Adabiy janrlar tushunchasi. Adabiy ijodning turli xilligi va uning tilda namoyon bo‘lishi. Adabiy asar turlarining kompozision farqli jihatlari. Epik tur. Roman, qissa, hikoya janrlari va kichik janrlarning o‘ziga xosligi. Xalq og‘zaki ijodi janrlari va ularning rang–barangligi. Lirik tur. Lirik turning spetsifik xususiyatlari. Lirik qahramon tushunchasi. Lirik asarlarni janrlarga ajratish prinsiplari. Hozirgi she‘riyatdagi lirik janrlar xususiyati. Dramatik turning shakllanishi. Tragediya, drama, komediya janrlari. Dramatik turning hayotiy asosi. Dramaning o‘ziga xos xususiyati. Dramada syujet va kompozisiya. Dramada personaj nutqi va xarakterlar tasviri. Dramaning janrlari.

Badiiy san‘atlar. Lafziy san‘atlar. Ma‘naviy san‘atlar. Poetik ko‘chimlar. Ko‘chimlar va ularning tasnifi. Tashbeh, iyhom, ishtiyoq, tamsil, tazod, irsolu–ul–masal, kalom-i jomi’, ruju, savolu javob.

Badiiy psixologizmning nazariy asoslari. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi. Psixologizm va psixologik tahlil muammolari. Qahramon ruhiyatining bevosita (og‘zaki, yozma yoki ichki nutqi-monolog, tush ko‘rish) va

bilvosita (imo-ishora, xatti-harakat, ma'noli imo ishoralar) tasviri. Qahramon ruhiyatini ochishda nutq va uining turlaridan foydalanish. Yozuvchi ma'naviy dunyoqarashi. Qahramon botiniy olami tasviri.

Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari. Xronotop tushunchasi haqida ma'lumot. Zamon va makon tushunchasi. Adabiy asardagi zamon va makon masalasi. Xronotop funktsiyalari. Badiiy adabiyotdagi zamon va badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy zamonning xususiyatlari. Xronotopning – konkretlashtirish va mavhumlashtirish imkoniyati. Xronotop – adabiy asardagi makon va zamon birligi. Romandagi zamon va xronotop shakllari.

Adabiy yo'nalish va oqimlar. Hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari. Ijodiy metod tushunchasi. Romantizm, realizm metodlarining xususiyatlari. Romantizm va realizm – ijodiy metod sifatida. Naturalizm yo'nalishi haqida ma'lumot. Uslub tushunchasi. Badiiy adabiyotda uslubning o'ziga xos xususiyati. Sharq adabiyotshunosligida uslub masalasi. Metod va uslub birligi. Zamonaviy oqimlar haqida ma'lumot (modernizm, postmodernizm.).

Hozirgi adabiy jarayon. Ijodiy jarayonni o'rganishning ahamiyati. Adabiy jarayon tushunchasi. Adabiyot va ijtimoiy-tarixiy sharoit masalasi. Adabiy jarayonni davrlashtirish. Nasr va nazmda janrlar va mavzu rangbarangligi. O'zbek adabiyoti jahon adabiyotining ajralmas qismi sifatida.

Ijodiy metod. Sotsiologik metod. Ippolit Tenning nazariy qarashlari. Biografik metod. Sh.O. Sent-Byov va Andre Moruaning ilmiy g'oyalari, yozuvchining psixobiografiyasi. Psixologik metod. E. Enneken, A.A. Potebnya qarashlari. Psixoanalizning ekzistensializm va strukturalizm yo'nalishlari. Struktural metod. Klod Levi-Stross va Rolan Bartning nazariy mulohazalari. Yu.M. Lotman nazariyasi. Lingvistik metod. A. Fitrat va V.V. Vinogradov qarashlari. Germenevtik metod. G.G. Gadamer, M.M. Baxtin nazariyasi.

Badiiy asar tahlili va tamoyillari. Badiiy asar tahlili haqida tushuncha. Tahlil va talqin munosabati. Asar tahlili tamoyillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Badiiy tahlilda ilmiy tushunchalar va xulosalar. Badiiy asar tahlili va talqin. Asarda muallif pozitsiyasi. Asarga turlicha yondashuv va turlicha talqin masalalari.

10.00.07 – «Adabiyot nazariyasi» ixtisosligi bo'yicha kirish imtihon dasturi yuzasidan o'qish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ–5847–сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022–2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ–60–сон Фармони.
3. Адабиёт — инсонни кашф қилиш/ Тўплам. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Хуршид Дўстмуҳаммад. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – 118 б.
4. Адабиёт энциклопедияси: (Атамалар, истилоҳлар, сиймолар, асарлар ва нашрлар). Тузувчи: Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: «Mumtoz so‘z», 2015. – 664 б.
5. Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 352 б.
6. Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. Тарихий поэтикадан очерклар. Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 288 б.
7. Бахтин М.М. Вопросм литературм и эстетики. – М.: Худож. лит., 1975. – 504 с.
8. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – М.: Худож. лит, 1986. – 424 с.
9. Бобоев Т Адабиётшунослик асослари. – Т.: «Ўзбекистон», 2002. – 560 б.
10. Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – Москва: Вмс– шая школа, 1989. – 648 с.
11. Гей Н.К. Искусство слово. – М.: Наука, 1967. – 364 с.
12. Голсуорси Ж. Адабиёт ва ҳаёт./ Жаҳон адиблари адабиёт ҳақида. Озод Шарафиддинов таржималари. – Т.: Маънавият, 2010. – 390 б.
13. Eagleton Terry. Literary Theory: an introduction / Terry Eagleton – 2nd ed. Blackwell Publishing, 1983. – 249 p.
14. Жўракулов У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. – Т.: «Ғафур Ғулом номидаги нашриёт–матбаа ижодий уйи», 2015. – 354 б.
15. Иброҳим Ҳаққул. Мушоҳада ёғдуси. Адабий ўйлар, ҳикматлар, лутфлар. – Т.: Тафаккур, 2019. – 256 б.
16. Йоханн Вольфранг Гёте/ Заковат дурдоналари (олмон тилидан М.Акбаров таржимаси). – Т.: «Янги аср авлоди», 2013. – 148 б.
17. Йўлдошев Қ., Йўлдошева М. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент: Камалак, 2015. – 464 б.
18. Мелетинский Е.М. Введение в историческую поэтику эпоса и романа. – М.: «Наука», 1986. – 320 с.
19. Муродов Ғ., Темирова Д. Тарихий романда сюжет муаммоси. – Т.: «Фан», 2008. – 42 б.

20. Путилов Б. Мотив как сюжетобразующий элемент // Типологическое исследование по фольклору. – М.: Наука, 1975. – С. 141–155.
21. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – 336 б.
22. Расулов А. Илми ғарибани қўмсаб... – Т.: Маънавият, 1998. – 64 б.
23. Содержание и форма литературного произведения / Крупчанов Л.М. Теория литературм. Учебник. – М.: Флинта, 2012 // www.litmir.me
24. Colin John Holcombe. Literary Theory In Depth. Ocaso Press 2021. – 570 p.
25. Cuddon J. A., Habib M. A. R. A Dictionary of Literary Terms and Literary Theory. – Blackwell Publishers Ltd 4e, 1998. – 801 p.
26. Теория литературы: Учеб. пособие. / Под ред. Н. Д.Тамарченко. Т. 1: Н.Д.Тамарченко, В.И.Тюпа, С.Н.Бройтман. Теория художественного дискурса. Теоретическая поэтика. – М.: Издательский центр «Академия», 2004. – 512 с.
27. Теория литературы: учебник для студ. высш. учеб. заведений / В.Е.Хализев. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Издательский центр «Академия», 2009. – 432 с.
28. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Т.: Янги аср авлоди, 2011. – 508 б.
29. Тўйчиева Ш. Ижодкор дунёқараши ва бадиий услуб. – Т.: Академия, 2009. – 132 б.
30. То‘раева В. Adabiyot nazariyasi. - Т.: “EFFECT-D”, 2020. – 164 б.
31. То‘раева В., Ко‘чимов У. Adabiyotshunoslik. – Т.: «Malik print со», 2022. – 192 б.
32. Тўраева Б. Замонавий романларда хронотоп поэтикаси. – Т.: «EFFECT-D» нашриёти, 2022. – 287 б.
33. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Т.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 308 б.
34. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Samarqand, 2012. – 254 б.
35. Умарова М. Тарихий драмада бадиий вақт: Шекспир ва Фитрат. Монография. – Т.: «Mumtoz so‘z», 2013. – 130 б.
36. Умуров Ҳ. Бадиий ижод асослари. – Т.: Ўзбекистон, 2001. – 120 б.
37. Халлиева Г. Қиёсий адабиётшунослик. – Т.: Mumtoz so‘z, 2020. – 198 б.
38. Xallieva G. Adabiyotshunoslik: O‘quv qo‘llanma. – TDSHI nashriyoti, 2017.
39. Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературм. – Москва: Писатель. 1975. – 477 с.
40. Шодиев Н. Горизонты эпоса: Худож.–эстет. Богатство эпической прозы литературм Средней Азии Казахстана. – Т.: «Изд–во лит. и искусства», 1986. – 174 с.

41. Эсалнек А.Я. Теория литературы: учеб. пособие. – М.: Флинта: «Наука», 2010. – 207 с.
42. O‘rayeva D., Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. – T.: Turon zamin ziyo, 2015. – 170 b.
43. Қуронов Д. Адабиёт назарияси асослари. – Т.: Академнашр, 2018. – 480 б.
44. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – 411 б.
45. Hans Bertens. Literary Theory: The Basics. Taylor & Francis e–Library, 2007. – 259 p.

NAMUNAVIY SAVOLLAR

1. Qadimgi G‘arb va Sharq adabiyotshunosligida dastlabki nazariy qarashlar.
2. Aristotel, Forobiy, va Navoiyning poetik ta’limotlari.
3. Adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslik metodologiyasi.
4. Badiiy adabiyotning didaktik, kompensatorlik, badiiy-konseptual, kommunikativ, badiiy bashorat funksiyalari.
5. Badiiylik mezonlari tasnifi. Ijod jarayoni qonuniyatlari.
6. Badiiy detaldan samarali foydalanishda yozuvchi mahorati.
7. Tasvir yoki ifodaning haqqoniyligi.
8. Tasvir va ifodaning aniqligi. Betakrorlik (originallik).
9. Hayotiy haqiqat va badiiy to‘qima.
10. Mazmun va shakl birligi va ularning uyg‘unligi.
11. Shaklning nisbiy mustaqilligi, shaklning konservativligi, mazmunning originallikka intilishi.
12. Shakl va mazmun unsurlari tasnifi.
13. Sinkretizm va sintetizm hodisasi
14. Syujetning turlari va tiplari.
15. Syujet va fabula.
16. Badiiy asar kompozitsiyasi.
17. Kompozitsiya haqida umumiy tushuncha. Kompozitsiya unsurlari.
18. Asar sarlavhasi – semiotik kalit.
19. Badiiy obraz va obrazlilik.
20. Obrazli tafakkur (obrazlilik) san’atning spesifikasi.
21. Inson obrazi va uni yaratish yo‘llari. Badiiy obraz turlari.
22. Badiiy asar tilining xususiyatlari. Til – badiiy asar komponenti sifatida.
23. Xalq tilining estetik imkoniyatlari.
24. Badiiy til. Muallif nutqi. Personaj nutqi. Tilning maxsus tasviriy vositalari.
25. Badiiy adabiyotda dialektizm, arxaizm, professionalizm, vulgarizm va boshqa unsurlar masalasi.

26. Badiiy matnda stilistik vositalar.
27. Adabiy tur va janrlar. Badiiy adabiyotni turlarga ajratish prinsiplari.
28. Adabiy turlar orasida chegaraning shartlilikligi. Adabiy janrlar tushunchasi.
29. Adabiy asar turlarining kompozision farqli jihatlari.
30. Epik tur. Roman, qissa, hikoya janrlari va kichik janrlarning o'ziga xosligi.
- Lirik tur. Lirik turning spetsifik xususiyatlari.
31. Lirik qahramon tushunchasi. Lirik asarlarni janrlarga ajratish prinsiplari. Hozirgi she'riyatdagi lirik janrlar xususiyati.
32. Dramatik turning shakllanishi. Tragediya, drama, komediya janrlari. Dramatik turning hayotiy asosi. Dramada personaj nutqi va xarakterlar tasviri.
33. Badiiy psixologizmning nazariy asoslari.
34. Psixologizm va psixologik tahlil muammolari.
35. Qahramon ruhiyatining bevosita (og'zaki, yozma yoki ichki nutqi-monolog, tush ko'rish) va bilvosita (imo-ishora, xatti-harakat, ma'noli imo ishoralar) tasviri.
36. Qahramon ruhiyatini ochishda nutq va uining turlaridan foydalanish. Yozuvchi ma'naviy dunyoqarashi.
37. Badiiy zamon va makon (xronotop). Xronotop – adabiy asardagi makon va zamon birligi.
38. She'r kompozitsiyasi, ritm va metrika. She'riy sintaksis va poetik intonatsiya.
39. Adabiy yo'nalish va oqimlar. Hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari.
40. Badiiy adabiyotda uslubning o'ziga xos xususiyati.
41. Sharq adabiyotshunosligida uslub masalasi. Metod va uslub birligi.
42. Zamonaviy oqimlar haqida ma'lumot (modernizm, postmodernizm).
43. Hozirgi adabiy jarayon. Ijodiy jarayonni o'rganishning ahamiyati.
44. Ijodiy metod. Sotsiologik metod. Ippolit Tenning nazariy qarashlari.
45. Biografik metod. Sh.O. Sent-Byov va Andre Moruaning ilmiy g'oyalari, yozuvchining psixobiografiyasi.
46. Psixologik metod. E. Enneken, A.A. Potebnya qarashlari. Psixoanalizning ekzistensializm va strukturalizm yo'nalishlari.
47. Struktural metod. Klod Levi-Stross va Rolan Bartning nazariy mulohazalari. Yu.M. Lotman nazariyasi.
48. Lingvistik metod. A. Fitrat va V.V. Vinogradov qarashlari.
49. Germenevtik metod. G.G. Gadamer, M.M. Baxtin nazariyasi.
50. Badiiy asar tahlili va tamoyillari.
51. Tahlil va talqin munosabati. Asar tahlili tamoyillari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
52. Asarda muallif pozitsiyasi. Asarga turlicha yondashuv va turlicha talqin masalalari.
53. Umarali Normatovning adabiy-nazariy qarashlari.
54. Retsepsion estetika tabiati. Retsepsion nazariya va germenevtikaning uzviyligi.
55. Abdug'afur Rasulovning adabiy-estetik qarashlari.